




**BIR KUNDA MING
NUSXA SOTILGAN KITOB**

2-bet



**QO'RQINCHLI
KINODAN SO'NG**

4-bet



**GUANCHJOUGA
YO'L OLDIK**

7-bet

www.tongyulduzi.uz

TONG

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

yulduzi

2010-yil
15-noyabr
N:46
(66795)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

HAMMAGA HAMROH

BOLSIN!

Barcha tahririyatlarda bo'lgani kabi bizda ham obuna ishlari qizg'in davom etmoqda. Yaqinda dastlabki natijalar bilan tanishib chiqdik. Bugungi kunda namanganlik o'quvchilar obuna bo'yicha karvonboshchilik qilmoqdalar. Farg'onalik va samarqandlik o'quvchilar ham ulardan ortda qolmaslik uchun harakat qilayotganlari sezilib turibdi. Andijonlik va qashqadaryolik o'quvchilar ham tez kunda peshqadamlar safidan o'rin olishlari tayin.

Ayniqsa, navoiylik o'quvchilarning faolligini alohida ta'kidlashni istardik. Bu viloyatda gazetamizga obuna ishlari har qachongidan ham yuqori darajada olib borilmoqda.

Ibratli ko'rsatkichlar haqida yozish naqadar zavqli, ammo qaysar raqamlar ham borki, xohlaysizmi, yo'qmi, ular bilan hisoblashishga majburbiz. Qoraqalpog'iston va Jizzaxda hozircha ko'rsatkichlar juda past darajada. Sirdaryo, Xorazm, Buxoro, Surxondaryo va Toshkent shahri haqida ham maqtugulik biror so'z aytolmadik. Shunga qaramasdan ko'nglimizda bir ilinj paydo bo'ldi. Obuna ishlari endi boshlandi. Hozircha orqada qolayotganlar balki peshqadamlardan ham o'zib ketishar. Niyatimiz, «Tong yulduzi» har bir o'quvchining hamrohi bo'lsin.

O'z muxbirimiz

Olovruddin ORIPOV olgan surat



Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi 326-maktabning 7-«B» sinf o'quvchisi Jasur Qodirov kuni kecha poytaxtimizda bo'lib o'tgan «Yangi avlod» festivalining shahar bosqichida tasviriy va amaliy san'at yo'nalishi bo'yicha ishtirok etib, g'olib bo'ldi. Jasurbekka tanlovning respublika bosqichida ham omad yor bo'lsin!

BIR KUNDA MING NUSXA SOTILGAN KITOB

**Bir kuni tanishlarimdan biri:
– Nazarimda, biz yaxshi kitoblar
haqida gapirishni unutilib
qo'yganga o'xshaymiz, – dedi.**

Uning nimaga sha'ma qilayotganini tushungan bo'lib, o'ylanib qoldim: haqiqatan ham, biz davralarda kitob haqida kamroq fikr yuritadigan bo'lib qoldik. Buning ziyoni ko'p. Ayniqsa, bolalar oldida bu to'g'rida fikr yuritmay qo'yganimiz ularning ma'naviy axloqiga salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi. Shu bois ham, menimcha, kitob o'qimay qo'ydik emas, kitob haqida fikr yuritmay qo'ydik, desak, to'g'riroq bo'ladi.

O'zimcha, ikki oilani taqqoslab ko'rdim.

Biri ziyoli oila: ota-ona o'qituvchi, ikkinchisi, erta-kech qorinni orqasidan quvgan kimsalar.

O'qituvchi bilan suhbatlashib qolsam: «Xo'sh, qanday yaxshi kitoblar chiqyapti, bizga ham keltirib turing», deydi. Ertasi uchrasak: «Kechagi maqola yaxshi chiqibdi, bolalarga zarur gaplar aytilgan», deya minnatdorligini izhor etadi. Boshqa kun ko'rishib qolsak: «Yaxshi ertak kitob chiqibdi, nevaralarga olib berdim», deya suyunadi. Bu gaplardan bir olam rahat olaman.

Biror yig'in bahona uyiga chaqirib turadi. Xushnudlik bilan boramiz. Bolalarning ko'ksi qo'lida: biri choy tashiydi, biri ostonadagi tuffilarni o'nglab, qator terib qo'ysa, boshqasa qolgan yumushlar bilan shug'ullanadi. Oila sokin, hammayoq ozoda, yoqimli hid taralib, ko'nglingizni xushlaydi, xonadon bo'ylab

faiz kezib yurganini aytmaymizmi?! Jovonlarda tartib bilan terib qo'yilgan kitoblar ham nazaringizdan chetda qolmaydi.

Bunday oiladan rohatlanib chiqasiz.

Ikkinchi oila buning teskarisi. Oila boshlig'ining yarim yuvilgan yuzini ko'rib, ertalabdan kayfiyatingiz buziladi. Sizni ko'rgan zahoti uyalmay-netmay: «Qo'shni, doim o'zingiz ketavermay, osh-poshga bizni ham chaqirib turing, moshinangizning bir chetidan bizga ham joy topilar», deydi. Bir gal kasal bo'lganida, xabar olgani uyiga kirdik: qachonlardir devorga ilingan gulli qog'ozlar sarg'ayib yirtilgan, ostonaga kirchir, mehmonxonadagi xontaxaning atroflari qorayib yaltirab qolgan. Ichkari aydan avval ayolining, so'ng o'g'lining qattiq-qattiq ovozlari eshitildi. «Bor, dori olib kel deyaipman senga», dedi ayol, o'g'li: «Meni ishim bor», deb javob qaytardi. Kasal otaga munosabat shumi? Bu oilada birorta kitob u yoqda tursin, hatto gazetaning yirtiq varag'ini ham topish amrimahol. Ta'na emas, tavba!

Charlz Dikensning «Rojdestvo qo'shig'i» degan asari bor. Kitob nashr etilgan kunning o'zida ming dona sotilgan. Ikki haftada unga o'n besh mingta talab bo'lgan. O'sha kunlari Londonda uchrashib qolgan do'stlar birinchi o'rinda: «Shu kitobni o'qib

**Birovkim bo'lur bir ayoq* osh uchun qul,
Yuziga kerakdur qozonning qarosi.**

Ochko'zlik – yomon illat. Ko'zga quloq solgan kimsa hamma narsaga ruju qo'yadi, ya'ni nimani ko'rsa, barchasi meniki bo'lsin, deydi. Bu narsa jamiyatga ham, odamlarga ham va o'sha badnafs kimsaning o'ziga ham ziyon keltiradi. Hazrat Alisher Navoiy bobongiz shu bois ham bir kosa ovqat uchun badnafslik qilgan kishining yuziga qora kuya surtish kerak, deydi.

Aziz bolalar!

Siz oriyatni nafsdan ustun qo'ying, ochko'zlik qalbingizdan joy ololmasin.

***ayoq – tovoq, kosa**



chiqingizmi?» deb so'rashgan bir-birlaridan. Kitob o'qigan odam hech qachon kam bo'lmagan. Bolalar, kelajak baxtingiz kitoblarda ekan, har bir chiqayotgan asarga befarq bo'lmagan, ular sizlarga ko'p narsa berishi mumkin.

Bizda bunday kitoblar yo'q, deysizmi?

Oqsoqol adib Pirimqul Qodirovning uch ming nusxada chop etilgan «Amir Temur siyomosi» asari tezda sotilib ketdi. Bu nimani bildiradi, aziz bolalar? Bu, birinchi navbatda, bizda kitob o'qilayotganini, yaxshi asarlarga katta ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Shuni hisobga olgan «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi sizlar uchun «Amir Temur haqida hikoyalari», Abu Rayhon Beruniyning «Ikki quti xazinasi» kitoblarini chop etdi. Har ikkala kitob ham noyob asarlar. Ulardan siz

ko'p narsalarni o'rganishingiz mumkin, qolaversa, bu kitoblar yana qachon nashr etiladi. Borida olib qoling, bir kun kelib, menga rahmat deysiz.

Kecha Dilmurod ukamiz maktabdan shod qaytdi.

– Sizdan olgan Oybekning «Navoiy» romanini o'qigan edim, ona tili va adabiyot o'qituvchimiz do'stlarim oldida ancha yaxshi gaplar aytdilar, bundan juda xursand bo'ldim, – dedi u.

Bundan men ham xursand bo'ldim. Kitob ana shunday – odamga doimo xursandchilik va baxt olib keladi.

Surxondaryolik Hasan degan akamiz qo'ng'iroq qildilar:

– Uka, bolalarimni «Tong yulduzi» gazetasiga obuna qildim, kitobchalarni ko'paytir!

Biz yo'q dermidik. Darvoqe, qanaqa kitoblar deysizmi? Gazetamiz orasida bu yil ham sizlar uchun turli asarlarni kitobcha shaklida chop etib boramiz, bizni kuzatib boring!

O'z muxbirimiz

**Tahririyatdan:
Aziz o'quvchilar!
Fikr-mulohazalaringiz bo'lsa,
bizga, albatta,
qo'ng'iroq qiling:
8-371, 244-63-08, 244-27-25.**



**Sevimli nashrlarimiz
«Tong yulduzi» gazetasi
va «G'uncha» jurnali
xodimlari shahrimiz
bo'ylab o'quvchilar bilan
uchrashuvga o'tlanishdi.
Ana shunday ijodiy
uchrashuvlardan biri
yaqinda 85 yilligi
nishonlangan poytaxtdagi
41-maktabda bo'lib o'tdi.
Tadbir bahona o'quvchilar
bilan dildan
suhbatlashdik.**

Tadbirda ijodkorlar o'z she'rlaridan, yosh qalamkashlar she'riy mashqlaridan o'qishdi. Qizg'in savol-javoblar boshlanib ketdi. Eng qiziq savol egalari gazeta va jurnallar taqdim etildi.

Uchrashuv so'ngida maktab rahbari Gulnoza opa Muzaffarova mehmonlarga barcha ishtirokchilarga o'z minnatdorligini bildirdi.

Kuni kecha mazkur bilim dargohida yana bir ajoyib tadbir – ona tili va adabiyot fan oyiliga bag'ishlangan tanlov bo'lib o'tdi. 5-6-sinflar o'rtasida «Ertaklar – yaxshilikka yetaklar» mavzusidagi rasmlar tanlovi, «Eng chiroyli husnixat», «Qiziqarli boshqotirma», «Yosh ijodkorlar» tanlovlari o'tkazildi. Unga bolalar nashrlari xodimlari ham tashrif buyurishdi va g'oliblarni aniqlashga yordam berishdi: «Yosh ijodkorlar» o'rtasida g'oliblikni Kamola Orifjonova, ikkinchi o'rinni esa Yulduz Komiljonovalar qo'lga kiritishdi. She'rlarni ifodali o'qish bo'yicha bo'lgan bellashuvda Saidniso Tursunboyeva va Mohira Abduqodirovalar birinchi va ikkinchi o'rinlar sohibi bo'lishdi. «Eng chiroyli husnixat» musobaqasida birinchi va ikkinchi o'rinlar Aziza Jaloliddinova va Abror Muhammadjonovlarga nasib etdi. Tadbirda barcha ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari hamda o'quvchilarning ota-onalari ishtirok etishdi.

Biz ham o'quvchilarga kelgusida yanada barkamollik tiladik.

**Yulduz TESHABOYEVA,
Muzaffar AHMEDOV**



– Biz uch dugona – Hilola Rashidova, Maftuna Muhammadova va Nigora Po'latova 7-sinfda o'qiyamiz. Maktabimiz qoshidagi xo'r to'garagiga 5 yildan buyon qatnashib kelamiz. Ustozimiz Shoirva opani juda yaxshi ko'ramiz. Eng sevib kuylaydigan qo'shig'imiz «Chinni gul».



– «Tong yulduzi»ga obuna bo'ldim. Chizgan rasmimdan yuborsam, chiqarmikan? – deb so'radi 3-sinfda o'qiydigan Robiya Fayziyeva.

MAKTABIMIZ UYIMIZ, FAQAT O'QISH O'YIMIZ

Bu so'zlar Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 12-«Mehribonlik uyi» negizidagi umumta'lim maktabi o'quvchilarining shiorlari ekan. Buni biz elektron pochtaimizga kelgan maktab orqali bilib oldik. Maktabda maskanda o'tkazilayotgan fan o'yliklari, turli tadbirlar, iqtidorli o'quvchilar haqida qisqacha ma'lumot berilibdi. Rangli fotosuratlarni ko'rib, o'zimizni shu maktabda yurgandek, o'quvchilar bilan yaqindan tanishib olgandek his qildik. Maktabdagi satrlarga bir ko'z yugurtirib ko'ring, ular Sizni ham mazkur bilim maskaniga sayohatga chorlasa, ajabmas



Maskanda tahsil olayotgan 158 nafar o'g'il-qizlarning mukammal bilim olishlari uchun barcha sharoitlar muhayyo. Kimyo, fizika, informatika xonalarida barcha sinf o'quvchilari nazariy bilimlarini amaliyot orqali mustahkamlaydilar. Katta stadion va mashq zallari o'quvchilarning sog'lom bo'lib o'sishida o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

O'quvchilarda fanlarga qiziqish uyg'otish maqsadida o'tkazilayotgan fan o'yliklari o'z samarasini ko'rsatmoqda. Sentabr «Iqtisodiy va geografik bilimlar oyligi», oktabr «Ona tili va adabiyot fanlari oyligi»da ko'pgina tadbirlar o'tkazildi.

Maktabning o'quv va tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Dilbar Suvonova tadbirlarda faol ishtirok etgan

o'quvchilarni rag'batlantirib, ularni hamisha ajdodlarga munosib avlod bo'lishga undaydi:

– Inson tug'ilibdiki, tarbiyaga, oyoqqa turibdiki, ta'limga muhtoj. Jamiyat hamisha komil insonga ehtiyojmand bo'lgan. Komil insonlar jamiyat taraqqiyotida yo'lchi yulduz bo'lib xizmat qilgan. Ikki oy davomida bo'lib o'tgan tadbirlarda ishtirok etib, o'z iqtidorini ko'rsatgan o'quvchilardan juda shod bo'ldim. Jumladan, barcha sinf o'quvchilarining geografiya va iqtisodiy bilim asoslari darslarida faol ishtirok etgani, o'tkazilgan tadbirlarda o'quvchilar va o'qituvchilarning hamjihatligini alohida e'tirof etmoqchiman.

Siz kimsiz? Siz yashayotgan zamin qayer? Termiziyar kim bo'lgan?

Hakim at-Termiziy, birinchidan: shariatshunos – faqih, tariqatshunos – mutasavvuf, hakimiya tariqatining asoschisi, muhaqqiq shayx ul – avliyo, zukko roviy va tazkirashunos,

tarixchi va tabiaitshunos, riyoziyotchi va falakiyotshunos, tabib va donishmand, lisonshunos va adabiyotshunos, notiqa, pedagog va ruhiyatshunos, bir so'z bilan aytganda, qomusiy (ensiklopedist) olim ekanligi; ikkinchi tomondan, Turonzaminda, Markaziy Osiyoda ko'pgina fanlar bilan birga tasavvuf ilmining asoschisi, boshlovchisi, eng muhimi, islohotchisi (reformator) bo'lganligi hammamizga ma'lum. Shunday ekan, Siz-u bizning qon-tomirimizda o'sha ajdodlarimiz qonlari jo'sh urib oqmoqda. Ajdodlarimizga munosib avlodlar, ya'ni ezgulik elchilari bo'lib yashaylik.



G. ORIFJONOVA tayyorladi



Suratda: 9-«A» sinf o'quvchisi, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori Veronika VOLODINA.

TEST

1. Qaysi shoir «Qalandar», «Andijonlik» taxallusi bilan ijod qilgan?

- A) Qodiriy;
B) Cho'lpon;
D) Fitrat.

2. Oybekning romanlari berilgan qatorni toping.

- A) «Qutlug' qon», «Ulug' yo'l»;
B) «Zafar bizniki», «Navoiy»;
D) «Zafar va Zuhro», «Qutlug' qon».

3. G'afur G'ulomning birinchi she'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang.

- A) «Ko'kan»;
B) «Dinamo»;
D) «Go'zallik nimada?»

4. Adabiyotning quroli nima?

- A) gap;
B) so'z;
D) matnlar.

5. «O'zbeklar» hikoyasida qaysi fazilatlar ulug'langan?

- A) mehnatsevarlik;
B) ilmga tashnalik;
D) borini birga baham ko'rish.

Diya JO'RAYEVA

– Bu – balki birgina istisnodir. «Yoshlik devoni»da aruzdan juz'iy chetlashishlar uchray turadi –buni shoimning o'zi «Debocha»sida qayd etgan. Lekin shuni unutmaslik kerakki, «eskirgan» degan soxta shior ostida adabiyot maydonidan mumtoz adabiyot janrlari, xususan, g'azal siqib chiqarilayotgan, Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy kabi g'azalnavislar rasmiy adabiyot poyiga surib qo'yilgan bir paytda «Yoshlik devoni»ning nashr etilishi katta ahamiyatga molik hodisa bo'lgan edi.

...aruz ritmi muntazam mashq natijasidagina o'zlashadi. Mumtoz adabiyot vakillarining ijodi bayt ruboiy qit'a g'azal, muxammas masnaviy qasida doston – sxemasiga muvofiq tushishi ham shundan. O'tmishda shoirlar qasida va doston janriga kamdan-kam hollarda yetib borgani ham aynan shu bilan izohlanadi.

Bobur bu xususda guvohlik beradi: «Ul fursatlarda birar, ikkirar bayt aytur erdim. Vale g'azal tugatmaydur erdim (ya'ni, qit'a mashq qilingan – A.A.). (Qosimbekka) birgina turkiy ruboiy yubordim».

Yoki: «Ul qo'histonda bu rasmdürkim, toshqa qazib abyot (baytlar) va nimalar bitirlar. Bu matla'ni o'shul ayyomda aytib erdim:

Ta-ka'-luf har' ne-cha su-rat'ta bo'l-sa on'di-nor-tuq-sen.

Se-ni jon der'la-r, - am-mo be'ta-kal-luf jon'di-nor-tuq-sen».

E'tibor qiling: Bobur bayt yozganidan mamnunligini yashirmayapti. Gap shundaki, she'rni vaznga zo'riqib tushirishga to'g'ri kelsa, bu – professionalizm yetishmasligidan. Chunki haqiqiy she'r o'z vazni bilan tug'iladi, «o'z-o'zidan quyulib keladi». Bir ilhom epkini bilan bayt aytilgan-u, u aruz vazniga mos tushgan ekan, bu – yosh Bobur uchun aruz «o'ziniki» bo'la boshlaganining alomati edi va mana shu holat unda mamnunlik tuyg'usini uyg'otgan.

Bugun ham aruzda she'r yozgan odam har baytdan so'ng shunday tuyg'uni boshdan kechirishi kerak. «Barmoq g'azali mohir»larini esa birgina bayt

Abdulla A'ZAMOV

ARUZ BAHSI

yozihsdan mamnun bo'lish ajablantiradi, albatta. Zero, ular Boburdan farqli o'laroq, «bayt-mayt» yozib o'tirmaydilar, bir yo'la «g'azal» yoki «muxammas» yozib tashlayveradilar.

Aruz shoirdan katta hajmdagi faol so'z boyligini talab etadi. Axir cho'ziq va qisqa hijolar tartibini o'miga qo'yish kerak-da. Shoimning «so'z sandig'ida» xilma-xil sinonimlar, qofiyadosh so'zlar ham yetarlicha bo'lishi kerak. G'azal yozganda ikki, uchtdan emas, kamida olti-yettitalab. Ustiga-ustak ularning ichida tesha teshmaganlari bo'lishi ham talab etiladi.

Aslida bu qoidalar barcha vaznlar uchun o'rinli, faqat barmoqda yozadigan shoirlar so'z boyligini aniqlash maxsus tadqiqot talab etsa, aruz buni darhol oshkor etib qo'yadi –so'z boyligi yetarli bo'lmagan shoir qalami qoqilib, vaznini oqsata boshlaydi.

Ijodkoming lug'ati qay yo'sinda boyishiga kelsak, bu yaxshi ma'lum –buning uchun mutolaa lozim, minglab kitob o'qilishi kerak. Bu o'ta muhim nuqta: minglab kitob o'qigan odamning nafaqat so'z boyligi o'sadi, parallel ravishda uning tushunchasi ham boyiydi, dunyoqarashi kengayadi, tafakkuri chuqurlashadi, tasavvuri tiniqlashadi, iste'dodi ulg'ayadi. U o'z hayoti va ijodini o'qiganlarga qiyoslay boshlaydi. O'qiganlari ichida buyuk asarlar bo'lsa, yozganlarini shunga mutanosib «qarich bilan o'lchash»ga o'rganadi. Jahon adabiyotining oltin xazinasi o'rin olgan kitoblardan qancha ko'p o'qisa, o'z yozganlariga nisbatan shu qadar talabchan bo'la boradi. Bularning bari, bir tomondan, shoir she'rlari shaklan mukammallik kasb etishini ta'minlasi, ikkinchi tomondan, asarlarining mazmuni teranlashib, badiiy saviyasi yuksalishiga asos bo'ladi.

Shu sababli, vazn, qofiya, she'riy san'at kabi shakliy jihatlarida saktalikka yo'l qo'yadigan muallifning yozganlarida, mazmun ham shunga yarasha bo'ladi. Va, aksincha, o'lmas asarlar yozgan shoirlar she'rlarida doim mazmun va shakl mukammalligi o'zaro uyg'un kelishini kuzatish mumkin. Misollar keltirib o'tirishga hojat yo'q, chunki bu adabiyotning qonunidir.

TAMOM
(Qisqartirib bosildi)

Betob bo'lib qolsangiz, albatta shifokor qabuliga yurasiz. O'z vaqtida jonimizga o' kiradigan oq xalatlil tibbiyot xodimlari birinchi navbatda shirin muomalalari bilan ko'nglingizni ko'tarishadi. Bir kuni shifoxonada navbat kutib o'tirib, mendan sal narida o'tirgan ona-

bolaga ko'zim tushdi. Bolakay onasi atrofi-da girdikapalak bo'lar, ona esa betoqat bo'lib navbatini kutardi. «Oyijo-n-n» dedi bolakay erkalanib. «O'chir ovozingni, men senga ko'chada gapirmagin deganman...» jahli chiqdi onaning.

Tavba, bolada nima gunoh, deb o'yladim va ular navbat kutib o'tirgan xonaning eshigiga qaradim. «LOGOPED».

Demak, tushunarli, bolaning tilida nuqsoni bor ekan-da, dedim-u, ammo bolaning jovdirab turgan nigohlari ko'z oldimdan ketmadi. Shunda shifokor-logoped bilan suhbatlashib, bunday nuqsonga bolalar qay tarzda uchrashi mumkinligini so'rab bilib oldim.

Suhbatdoshimiz Dilobar opa Rahimova bir necha yildan buyon logoped bo'lib ishlarkanlar. Hozir nafaqada bo'lib, shifokorlarning iltimosiga ko'ra shifoxonaga kelib turarkanlar.

- Dilobar opa, nima uchun ayrim bolalar ba'zi so'zlarni aytishda qiynalishadi yoki duduqlanib gapirishadi?

- Bunday bolalar tilida nuqsoni bor, deb hisoblanishadi va ular alohida e'tibor, sabr talab qilishadi. Ayrim ota-onalar bolaning ilk tili chiqayotgan vaqtda so'zlarning talaffuziga befarq bo'lishadi. Oqibatda bu kamchilik

asta-sekin rivojlana boradi. Bola ulg'aygach, ayniqsa, maktabga boradigan vaqtda bu nuqsondan uyaladi va tengdoshlaridan ajralib qoladi. Boladagi nuqsонni qancha tez aniqlasak, uni davolash shuncha oson kechadi. Bola «S», «R» tovushlarning o'rniga «SH», «L» tovushlarini

qolgan, oqibatda ravon gapiradigan bolam duduqlanadigan bo'lib qoldi». Bilasizmi, bundan ham yomon bo'lishi mumkin edi. Bolaning ruhan zo'rqiqlik, hali kinoda ko'rgan dahshatli voqealarini miya «sintez» qilib turgan bir paytda birdan, kutilmaganda qattiq

qo'rqiqlik ketishi duduqlanib qolishiga sabab bo'lgan. Miya tolalari ipakdan ham ingichka bo'lishi bizga ma'lum. Ana shunday paytda tilni boshqaradigan tolalar uzilib ketsa, bola bir umrga soqov bo'lib qolishi ham mumkin edi.

- Demak, bolalar sog'lom tug'ilib, hayoti davomida ham nuqsонli bo'lib qolishi mumkin ekan-da?

- Yuqorida ta'kidlaganimdek, hamma gap ota-onaning e'tiboriga bog'liq. Hozir deyarli har

bir oilada kompyuter bor. Ular bilan ishlashning afzalliklari ham bor, ammo o'ziga yarasha muammosi ham topiladi. Chunki bolalar kompyuter o'yinlarida turli qotilliklarni sodir qilishadi. Agar ota-onalar bolasining nima bilan mashg'ulligidan xabardor bo'lishsa, dahshatli kinolarni ko'ratishtirishmasa, bolaning miyasini ortiqcha zo'rqiqlikdan asrashsa, bunday holatlarning oldi olinadi. Asosiysi, beparvo bo'lmaslik kerak.

- Dilobar opa, bolalar bu kasallikdan butunlay forig' bo'lib keta olishadimi?

- Albatta, bu holatda ota-ona, muallim va shifokor birgalikda harakat qilishlari kerak. Agar shifokor, bola ota-onasi bilan shug'ullansin, desa yoxud muallim shifokor bolaga mas'ul desa, bolaning sog'ayishi ham cho'ziladi.

- Mazmunli suhbattingiz uchun rahmat. Sizga mas'uliyatli ish-ingizda omdan tilaymiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA
suhbatlashdi

QO'RQINCHLI KINODAN SO'NG



ishlatadi.

- Aytinchi, qabulingizga necha yoshli bolalar kelishadi va bu kasallikning asosiy omili nimada?

- Qabulimga hatto balog'atga yetgan yigit-qizlar ham kelishadi. Chunki yuqorida aytganimdek, ulg'aygani sayin bola bundan uyalay boshlaydi. Kasallik omiliga kelsak, bolaning lab-tanglay sohasidagi qisqagina yetishmovchilik. Yana bolaning o'sish davridagi darmondorilarning yetishmasligi, ekologiya ta'siridan ham bo'lishi mumkin. Yaqinda qabulimda bo'lgan bir ota-ona quyidagi voqeani so'zlab berishdi:

«Katta o'g'lim DVDda turli qo'rqiqlik kinolar ko'rishni yoqtiradi. Bir kuni kechasi o'g'illarim ana shunday filmni ko'rib, tashqariga chiqishgan. Shunda katta o'g'lim kichigimni qo'rqitmoqchi bo'lib eshik ortiga yashirinib, qattiq baqirgan. Bundan qattiq qo'rqiqlik ketgan o'g'lim hushidan ketib

MANGU HILPIRAYVER, BAYROG'INI


Aziz o'quvchilar!

hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi oliy Kengashining navbatdan tashqari VII sessiyasida 1991-yil 18-noyabr kuni tasdiqlanganini yaxshi bilasiz.

Bayroqdagi qizil chiziqdar vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlaridir. Navqiron yarimoy tasviri esa tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq.

Bayrog'imizda mujassamlangan timsollarni-chi? Yaqinda bir maktabda bo'lgan uchrashuvda bayrog'imiz haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasliklaridan xijolat bo'lib qolishdi. Shu bois, yana bir bor bayrog'imiz haqida suhbatlashgimiz keldi.



Davlatimiz bayrog'ini va uning ramzi bugungi O'zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo'lgan davlatlar bilan tarixan bog'liqlikni anglatadi hamda Respublikamizning milliy-madaniy an'analarini o'zida mujassamlashtiradi.

Bayroqdagi moviy rang Tinchlik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzidir. Timsollar tilida bu – yaxshilik, donishmandlik, halollik, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Buyuk bobomiz Amir Temur davlati bayrog'ini ham moviy rangda edi.

Bayroqdagi oq rang – muqaddas tinchlik ramzi bo'lib, u kun charog'onligi va koinot yoritgichlari bilan uyg'unlashib ketadi. Oq rang poklik, beg'uborlik, soflik, orzu va xayollar tozaligi, ichki go'zallikka intilishning timsolidir.

Yashil rang tabiatdagi yangilanish, navqironlik timsoli

Qadimdan barcha xalqlarda yulduzlar ilohiy timsol sanalgan. Bayrog'imizdagi 12 ta yulduz tasviri ham tarixiy an'analarimiz, qadimgi quyosh yilnomamizga bevosita aloqadordir. Bizning o'n ikki yulduzga e'tiborimiz O'zbekiston sarhadidagi qadimgi davlatlar ilmiy tafakkurida «Nujum ilmi» taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi. Davlatimiz bayrog'idagi o'n ikki yulduz tasvirini o'zbek xalqi madaniyati qadimiyligi, uning komillikka, o'z tuprog'ida saodatga intilishi ramzi sifatida tushunish lozim.

Mana, aziz o'quvchi! Yana bir bor muqaddas bayrog'imiz haqida suhbatlashdik. Uning mukammalligi, ko'plab tarixiy an'analarimizni o'zida jam etgani qalbimizni to'lg'inlantirib yubordi. Nima uchun buyuk ajdodlarimiz o'z bayroqlarini muqaddas bilib, uni ko'z qarachig'idek asraganlari boisini ni qilgandek bo'ldik. Yosh do'stim! Siz ham ajdodlarimiz olib borgan ezgu ishlarining munosib davomchilari bo'ling. Bayrog'imizni ko'z qarachig'iday asrang.

YU.ABDULLAYEV

ZUKKOLAR BELLASHUVI



Maktabimizda o'tkazilgan zukkolar bellashuvida 7-«A» sinf o'quvchilarining «Moziydan sado», 7-«V» sinf o'quvchilarining «Barkamol avlod» guruhi

a'zolari faol ishtirok etishdi. «San'at gulshani» yo'nalishida har bir sinf bittadan sahna ko'rinishi namoyish etishdi. Sahnada ko'rsatilgan mehnatkash-u ishoyoqmaslar, bilimdon-u dangasalar qiyofasi barchani sergaklikka chorladi. Bir-biridan qiziqarli savol-javoblarda «Eng bilimdonlar» guruhi bo'sh kelmadi.

Bilimimiz charxlanishiga hissa qo'shgan mazkur tadbirga bosh bo'lgan barcha ustozlarimizga, shuningdek, ona tili va adabiyot o'qituvchimiz Ozoda opa G'aniyevaga katta rahmat, degim keladi.

Shirinxon TO'RAYEVA,

Hamza tumanidagi 216-maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi

EZGU
ISTAK

«Barkamol avlod yili» biz yoshlarga yanada keng imkoniyatlar yaratib berdi. Bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanib, o'qish va izlanishdamiz.

Kelajakda ota-onamiz, ustozlarimiz ishonchini oqlab, jonajon yurtimizga munosib farzand bo'lishga harakat qilamiz. Bu ezgu istagimiz yo'lida bor kuch-g'ayratimizni ishga solamiz.

Ayni kunlarda sevimli nashrimiz «Tong yulduzi»ga obuna jarayoni qizg'in davom etmoqda. Biz ham birinchilardan bo'lib bu gazetaga obuna bo'ldik.

Iroda YODGOROVA,
Samarqand shahridagi
44-maktab o'quvchisi

ZAMONAVIY DARS -*davr talabi*

Ma'suda ODILOVA uzoq yillardan buyon Yunusobod tumani Xalq ta'limi bo'limi boshlig'i vazifasida ishlab kelmoqdalar. An'anamizga ko'ra, opaga birinchi savolimiz ularning bolalıklariga oid bo'ldi:

- Ma'suda opa, har bir insonning bolaligi orzularga limmo-lim bo'ladi. Yillar o'tib ular ushalganda, beixtiyor bolalik damlari yodga tushadi. Siz bolaligingizda nimalarni orzu qilgansiz?

- Maktabda a'lo baholarga o'qiganman. Hozirgi Sobir Rahimov tumani, u paytdagi Shayxontohur tumanidagi 133-maktabdagi ustozlarim va do'stларimni hamisha shirin xotiralar bilan yodga olaman. Yoshligimda shifokor bo'lishni orzu qilganman. 8-sinfni bitirib, men tibbiyot

bilim yurtiga, dugonam Ra'no esa aviatsiya bilim yurtiga hujjatlarimni topshirmoqchi bo'ldik. Shunda Ra'noning onasi: «Qizaloqlarim, yo'l-yo'lakay pedagogika bilim yurtiga ham kirib o'tinglar», deganlar. Ularning aytganlarini qilib, dugonam bilan pedagogika bilim yurtiga borib qoldik. O'sha vaqtda mazkur bilim yurtining direktori Mehri Sharipova edilar. Mehri opa kiraverishda bir necha o'qituvchilar davrasida o'tirgan ekanlar. Ular bizdan: «Qizlarim, shu bilim yurtiga o'qishga kirmoqchimisizlar?» deb so'radilar. Men: «Dugonam aviatsiya bilim yurtiga, men esa tibbiyot bilim yurtiga kirmoqchiman», deya javob berdim. Shunda Mehri opa: «Sen shu bilim yurtida o'qigin. Sendan yaxshi o'qituvchi chiqadi», deya meni bilim yurtiga jalb qildilar. Opaning maslahatlariga amal qilib, hujjatlarimni pedagogika bilim yurtiga topshirdim. Imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tib, o'qishga qabul qilindim. Bilim yurtini bitirganimdan so'ng, menga oliy o'quv yurti



Opaning maslahatlariga amal qilib, hujjatlarimni pedagogika bilim yurtiga topshirdim.

talabasi bo'lish nasib etdi. Ta'lim sohasida ishlashimga Mehri opamlar asosiy sababchi bo'lganlar.

- O'quvchilarga bilim berish eng mas'uliyatli va sharafli vazifalardan biri. Shunday ekan, hozirgi kundagi ta'lim mazmuni haqida nimalar deya olasiz?

- Ta'lim mazmuni deganda, hozirgi zamon talabiga javob beradigan darslar ko'z oldimga keladi. O'quvchilarning qanday bilim olayotganliklarini bilish maqsadida haftada ikki marotaba maktablarga chiqib, darslarni kuzatyapmiz,

o'qituvchi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligini ko'ryapmiz. O'qituvchi o'z ustida qanday ishlayapti, dars sifati qay darajada, u o'quvchiga puxta bilim beryaptimi, degan savollar bizni juda qiziqtiradi. Zamonaviy dars - davr talabi, deymiz. Zamonaviy dars deganda, o'zi nimani tushunamiz? Zamonaviy darslar interfaol usullardan foydalanib o'tish, multimediyada darslari demakdir. Dars qiziqarli o'tishi uchun unda ko'proq o'quvchi ishlashi kerak. O'qituvchi yo'naltiruvchi shaxs bo'lsin. Shunda o'quvchining bilimi puxta bo'ladi. Ustozlar faqat bilim berishga emas, balki bolalarga tarbiya berishga ham alohida e'tibor qaratilishi zarur.

- Bolajonlarga tilaklaringiz?

- Har bir insonning o'z oldiga qo'ygan maqsadi bo'lishi kerak. Bolajonlar, avvalambor, tarbiyali bo'lib, kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'lishsin, yon atrofidagilarga doim mehr bilan qarashsin. O'z ustlarida tinimsiz ishlashsa, o'yilgan maqsadlariga albatta erishadilar.

Suhbatdosh: Gulyuz BAHODIR qizi

2012-yilda Buyuk Britaniyada bo'lib o'tadigan XXX yozgi Olimpiadada munosib qatnashish har bir umidli sportchining orzusidir.

Kuni kecha Xitoyning Guanchjou shahrida 12-27-noyabr kunlari o'tadigan XVI Osiyo o'yinlarida qatnashish uchun yurtdoshlarimiz ham jo'nab ketishdi.

To'rt yilda bir marta bo'lib o'tadigan mazkur nufuzli musobaqada qit'amiy mamlakatlardan 10 mingdan ortiq sportchi ishtirok etmoqda. Ular sportning 42 turi bo'yicha o'zaro kuch sinashadi. Yurtdoshlarimiz esa sportning 31 turida shiddatli va qizg'in bahslarda o'z mahoratlarini namoyish etmoqdalar.

Ma'lumki, 2009-yil 5-yanvarda Prezidentimizning «O'zbekiston Respublikasi sportchilarining 2012-yil London shahrida o'tkaziladigan XXX

edi. Ushbu hujjatda sport klublari va jamoalari tarbiyalanuvchilari orasidan, ayniqsa, respublikamiz mintaqalaridan yosh, iqtidorli sportchilarni tanlab olishni takomillashtirish tadbirlarini amalga

oshirish hamda ularning sport mahoratini oshirish bo'yicha tayyorgarligini tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ana shu talablardan kelib chiqib, sportchilarni tarbiyalash ishlari qizg'in olib borilmoqda. Aytish joizki, Guanchjouda o'tadigan Osiyo o'yinlari ham yurtlarimiz uchun London Olimpiadasi oldidan o'ziga xos tajriba maktabi vazifasini o'tashi shubhasiz.

Demak, o'zbekistonlik sportchilarni ikki haftadan so'ng g'alaba bilan qaytishlarini intazorlik bilan kutib qolamiz.

GUANCHJOUGA



YO'L OLISHDI

yozi Olimpiada va XIV Parolimpiada o'yinlarida ishtirok etishga tayyorgarligi to'g'risidagi»gi qarori qabul qilingan

JAHON CHEMPIONATIGA CHIQDIK



shogirdlarining shodiyonasi bo'ldi. Bu bayramni yurtimizning barcha futbol ishqibozlari keng nishonlashdi.

Ayniqsa, O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zolaridan Temur Hakimov, Abbosbek Maxsaliyevni muxlislar «kashf etishdi». Biz ham ularga, jamoasiga katta umid bilan qarayapmiz. Madomiki, jahon chempionatiga

Yurtimizda bayramlar ko'p. Ammo bu safargi tantana chin ma'noda futbol ishqibozlari hamda Aleksey Yevstafeyev

yo'llanmani qo'lga kiritishda suriyalik tengdoshlari bilan kechgan bahs ham ularning futbol olamida kuchsiz emasliklarini yana bir bor isbotlay oldi. Suriya o'smirlar terma jamoasining bosh murabbiyi Muhammad al Jum'a:

– Hisobni tenglashtirganimizdan so'ng yana gol urishga imkonimiz bor edi. Ammo buning iloji bo'lmadi. Biz O'zbekiston terma jamoasini o'yinning ikkinchi taymida charchab qolganligidan unumli foydalanishga umid bog'langandik. Chunki anchagina toliqib qolgan Yevstafeyev shogirdlariga nisbatan mening shogirdlarim ancha tezroq, tetikroq yugurishayotgandi-da. Ming afsuski, biz kutgan g'alaba nashidasi raqiblarimizga nasib etdi. Na-chora, men ularni tabriklayman.

Aleksey YEVSTAFEYEV,
O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi bosh murabbiyi:

– Suriya bizga munosib qarshilik ko'rsadi. Lekin o'yin jarayoni futbolchilari-mizga ajoyib daqiqalarni hadya etdi. Nihoyat, pastdan oshirish emas, aksincha, yuqoridan to'p uzatish usuli jamoamizga muvaffaqiyat keltirdi. Meksikaga yo'llanmani qo'lga kiritish uchun intildik va bunga erishdik.

ALBGA SOCHGAN SATRLAR UVONCH

Goho, she'riyat olamiga endi qadam qo'ygan ijodkorning to'rt qator she'ri zim-ziyo ko'ngling peshtogida quyosh kabi charaqlab, yorug'lik ato etsa, bundan ortiq baxt yo'q, deya o'ylaysan. Ba'zan yoshi bir joyga borib qolgan shoirning tor dunyoqarashi qalbingni tunga hamroh etsa, ranjiysan kishi. Nima ham derdik, bugun she'rlari gazetamiz sahifasidan joy olgan ijodkorlarning she'rlariga qalam tegizishga botina olmadik. Go'zalxon Ergasheva:

Tun kaftida bir hovuch yurak,
Titranadi chiqib ketgudek...
desa, **Muyassar Ibragimova:**
Qizg'aldoqqa qondosh chog'laring
Tonggi shafaq – nahorim Surxon...
deya borliqdan yangicha ranglar izlaydi.
Ijodning beg'ubor olami qalbingizni hech qachon tark etmasin.
AXTAMQULI



UMIDANING SABOQLARI

Adabiyot haqida so'z ketganda, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning ohanrabo satrlari xayolimdan kechadi:

*Tankni tankka ko'paytirsa kul bo'ladi,
Adabiyot o'ylayverib sil bo'ladi...*

Shoir yozganidek, adabiyot teran fikr-mulohaza yuritish evaziga dillarni ezgulikka chorlovchi fandır. Bu fan o'qituvchilari zimmasida ham anchayin jiddiy mas'uliyat yotadi. Termiz Davlat Universitetining o'zbek filologiyasi fakultetida tahsil olgan Umidaning Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi 28-umumta'lim maktabida ish boshlaganiga endi uch yil bo'ldi.

U o'z uslubi va pedagogik mahorati bilan shogirdlarini adabiyot olamida dadil odimlashga undaydi. Uning o'quvchisi Charos Rajabova «O'zbekistonning yetti mo'jizasi» insholar ko'riktanlovida ishtirok etib, tuman, viloyat miqyosida mutlaq g'oliblikni egallab, Respublika bosqichida ishtirok etishga muvaffaq bo'ldi. Yana bir shogirdi Boymirzo Suvonov ona tili va adabiyot fani bo'yicha o'tkazilgan olimpiadaning tuman bosqichida g'olib bo'lib, viloyat bosqichida ishtirok etdi.

Izlanuvchan muallima dars o'tish jarayonida «Diqqatni jamlash», «Xotira» mashqlari, «Zukkolar boshqotirmasi», «Rebus», «Aqliy hujum», «Qo'g'irchoqlar tilga kirganda» ruknlari va texnik vositalardan unumli foydalanish orqali o'quvchilar bilimini oshirishga hissa qo'shmoqda. Umidaning saboqlari shogirdlarini mudom yuksaklarga chorlasin, deymiz.

A.KARIMOV

OPPOQ GULLAR SOCHAR TONG

Qaddin ko'tarib, yerga
Asta qaraydi samo.
Yam-yashil shudringchalar
Jaranglab berar sado.

Yam-yashil chigirtkani
Yashil o'tloq yashirar.
Yashil qo'ng'iz yumalab
Hayratimni oshirar.

Yam-yashil ariqchadan,
Oqib keladi osmon.
Yam-yashil daftarimga,
Oppoq gullar sochar tong.

Mahliyo EGAMSHUKUROVA,
Toshkentdagi 24-maktabning
8-sinf o'quvchisi



TUN

Tun kaftida bir hovuch yurak,
Titranadi chiqib ketgudek.
Osmon kiygan qop-qora ko'ylak,
Oy ham kimdan saqlayapti kek.

Tikilaman qora samoga,
O, ko'ksimga to'lmas yulduzlar.
Dilni boshlar shirin xayolga,
Bog'ga tomon burilgan izlar.

Hamla qilar go'yo to'rt devor,
O'ylarimdan to'xtayman taqqa.
Qo'llaringa qalamni olib,
Men ham kirib ketaman boqqa.

Tong kaftida bir hovuch she'rlar...

Go'zalxon ERGASHEVA,
Farg'ona viloyati, Quva tumani

BOBUR HAYOTINI YAXSHI BILAMAN

Bobur hayotini yaxshi bilaman,
O'n ikkida boshiga kiygizdilar toj!
Toj birla qilich ham hamrohi bo'ldi,
Shohlik uchun nachora yoshligi bir boj!

Bobur hayotini yaxshi bilaman,
Ona yurt diydori nasib qilmagan.
Vatanning sog'inchi dilin tig'lagan,
Hind xalqini o'ziga dushman bilmagan.

Bobur hayotini yaxshi bilaman,
G'azallar hayotin ayladi ta'rif.
Gohida alamli, dard, qayg'u bilan,
«Boburnoma» qoldi – tirik bir tarix!

Bobur hayotini yaxshi bilaman...

Dildora NAZIROVA,
Buxoro viloyati, Qorako'l tumanidagi
8-umumta'lim maktabining 8-sinf
o'quvchisi



Kamola TEMIROVA,
Surxondaryo viloyati,
Angor tumanidagi
5-maktab o'quvchisi

YO'LCHILARNING XIZMATI

Yo'llar ravon, tep-tekis,
Qiyalmasdan yurasiz.
Ushbu ishga qo'l urgan,
Yo'lchilarni bilasiz.

Ular mard va jasurdir,
Vatani uchun yashar.
Yurt go'zal bo'lishiga
O'z hissasini qo'shar.

Endi, aziz yo'lovchi,
Quloq soling barchangiz.
Yo'lda yurgan chog'ingiz,
Qoidani buzmagiz.



BAHOR
mitti qizaloq




Muyassar IBRAGIMOVA,
Surxondaryo viloyati,
1-Termiz akademik
litseyi talabasi

YURAKDAGI BAHORIM SURXON

She'rlar yozsam ilhomim sensan,
Qalbindagi ochildan gulsan,
Go'zallikka oshufta dilsan,
Tonggi shafaq – nahorim Surxon.
Ko'zlarimda bahorim Surxon.

Salobatli erur tog'laring,
Asal tomib turgan bog'laring,
Qizg'aldoqqa qondosh chog'laring,
Tonggi shafaq – nahorim Surxon,
Yurakdagi bahorim Surxon.

Go'zalliging zavol ko'rmasin,
Yovuzlarga makon bo'lmasin.
Sevmaganlar, mayli, sevmasin,
Tonggi shafaq – nahorim Surxon,
Sen baxtimsan, bahorim Surxon.



Sinfimiz maktabda o'tadigan turli tadbirlarda faolligi, jamoat ishlarida hamjihatligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham direktorimiz bizni barchaga namuna qilib ko'rsatadilar.

Bunday muvaffaqiyatlar o'z-o'zidan kelgani yo'q. Sinfdoshlarimning har birida o'ziga xos iqtidor, iste'dod bo'lib, namunali sinf degan nomga munosib bo'lishga intilishadi. Maktabdagi turli tadbir va tanlovlarda qatnashibgina qolmay, o'zlari ham turli musobaqalar tashkillashtirishadi. Keling, Sizni ana shunday musobaqalardan biri «Kim g'olib?» o'yini bilan tanishtiray:

Katta tanaffusda o'ynaladigan ushbu o'yinda asosan ikki nafar o'quvchi ishtirok etadi. Ular hakamlar hay'ati (qolgan barcha o'quvchilar) tomonidan o'ylab topilgan sirli topshiriqni bajarishlari lozim bo'ladi.

Bu galgi o'yinda bir mahallada yashaydigan ahil dugonalar Nargiza bilan Dildora bellashadigan bo'lishdi. Avvaliga Nargiza o'yinda g'olib bo'lsa, eng yaqin dugonasini ranjitib qo'yishdan cho'chib, o'yinda qatnashishga unamadi.

Dildoraning: «Bu axir o'yin-ku, qaytaga qay birimizning bilimimiz kuchli ekanligini bilib olamiz», degan gaplaridan keyin o'ynashga rozi bo'ldi.

CHUMOLI

O'zi kichkina,
Juda mehnatkash.
Foydasi katta,
Qo'lida xaskash.

Charosxon
TOJIYEVA



G'ALATI O'YIN

Ahmad, Dilso'z vaqti chog',
O'ynashar berkinmacho.
Ikkisi ikki yoqqa,
Yashirilib oladi,
Ularni topadigan,
Ayting-chi, kim qoladi?

Dilnoza TILLABOYEVA,
Toshkentdagi 206-maktabning 7-sinf
o'quvchisi



TOPISHMOQLAR

Bir qo'shnm bor avval
boshdan,
Soqli qip-qizil
go'shtdan.
Sahar turib showqin
solar,
Xabari yo'q hech bir
ishdan.



Kasbi doim
taqir-tuqur,
Qayda ilon
ko'rsang, chaqir.

Hilola VALIYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz
tumanidagi 98- umumta'lim maktabining
6-«B» sinf o'quvchisi

O'QUVCHINING YON DAFTARIGA

Aziz bolalar!
Bilimingizni oshirish uchun biz
qanday yordam bersak, deb ko'p
o'yladik va bu borada mazkur ruknni
tashkil qildik. E'tiboringizga
havola etilayotgan
manbaalar test savollarini
yechishda kerak bo'ladi,
deb o'ylaymiz.



QADIMGI CHOLG'U SOZLARI

Dul – gumbirlagan sado beradigan tubdor katta nog'ora; naqqora – asosi sopoldan yasaliib, ustiga echki yoki kiyik terisi qoplangan; burg'u – karnay va surnay shaklidagi qadimiy soz; chandovul, dovul – nog'ora gardishi doira shaklida bo'lib, har ikki tomoniga teri qoplangan.

Biror davrada shu to'g'rida gap ketsa, yuqoridagilarni gapirib bersangiz, hamma sizga tasanno deydi.

BITTA FE'LDAN 99 TA SO'Z

O'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan yirik vakili Abdurauf Fitrat birgina «bil» fe'lidan 99 ta so'z yasab, tilimizning arab, fors, rus, nemis, fransuz tillaridan mukammal va boy ekanini amalda isbot etgan.

Ona tilimiz ravnaqi yo'lida siz ham hissa qo'shing.

BIRINCHI TEATRIMIZ QAERDA VUJUDGA KELGAN EDI?

Bu savolga professor Mamajon Rahmonovning ilmiy izlanishlaridan javob topish mumkin: u kishining fikricha, bundan ikki ming yillar oldin Shosh davlati saroyida teatr faoliyat ko'rsatgan. Bu ijodiy guruh Xitoy shaharlarida ham tomoshalar ko'rsatgan ekan.

Bobokalonlar faqat mehnatni emas, dam olishni ham bilishgan.

ARSLONXON MINORASI

Buxoro shahrida, minoraning eng yuqori qismida «Usto Baqo amali», «Arslonxon minorasi» degan so'zlar yozilgan. «Minorai kalon» deb keyinchalik buzib aytila boshlangan.

Dunyoda bunday nodir bino atigi ikkita bo'lib, ulardan biri Italiyadagi Pizza minorasi, uning ham ikkinchi nomi bor, «Og'ma minorasi» deyishadi.

Arslonxon minorasining qurilishi 1124-yilning 21-mart kuni boshlanib, 1127-yilda bitkazilgan. Balandligi 47 yarim metr.

«Oldingizdan oqqan suvning qadri»ga yeting. Mazkur minorani bir ko'rish orzusida bo'lgan sayyohlarning son-sanog'i yo'q.

ANIQ NATIJA

Milodiy 827-yili Muso Xorazmiy boshchiligida Yer kurrasining kattaligini aniqlash maqsadida, Yer meridianining bir gradusi o'lchab chiqildi va meridian gradusi uzunligi o'rta hisobda 112 kilometr ga teng qilib olindi. Bu hozirda ham eng aniq natija hisoblanadi.

1 1917-yilgacha yengil avtomobildan ko'chadagi yo'lovchilar, hatto it-mushuklar ham juda cho'chishgan. O'sha yili mashinaning bitta muhim qismi yaratildiki, shundan so'ng mashinalardan cho'chimaydigan bo'lishdi. Bu qanday ixtiro edi?



2 «Tinglagil «u» ne hikoyat aylagay, Ayriqlardan shikoyat aylagay». Jaloliddin Rumiyning bu misralaridagi «u» o'rnida qanday so'z bo'lishi mumkin?

4 Mashhur «Farg'ona tong otuncha» romanini kim yozgan?
A) Mirmuhsin;
B) Mirzakalon Ismoiliy;
D) Tohir Malik;
E) O'tkir Hoshimov.

3 Fikrlab ko'ring-chi: shakli to'rtburchak, mahsulot sifatida ishlatiladi, faqat binolarda emas. Bu nima bo'lishi mumkin?

Ajdodlarimizni o'rganamiz

AJDODLARGA MUNOSIB VORIS BO'LAYLIK!

Biz ajdodlari buyuk yurt farzandlarini kamol toptirmoqdami. Tomirida Amir Temur, Navoiy, Qodiriy qoni jo'sh urib turgan o'quvchilarimiz bobolariga munosib voris bo'lish uchun tinmay o'qib o'rganmoqdalar. Kuzgi ta'til kunlarida ular buyuk ajdodlari tarixini turli adabiyotlardan izlab, topib o'rganishibdi. Taassurotlarini insho qilib yozishibdi. O'quvchilarimiz bilganlarini viloyatlardagi do'stlariga ham «ilinishdi». E'tiboringizga ular yozgan insholardan ayrim parchalarni havola etmoqchimiz, bilmasangiz, bilib olasiz, bilsangiz, yana bir bor yodingizga tushar.

Mahmuda VALIYEVA,
Yunusobod tumanidagi 274-maktab
muallimasi

«ILM TANTANASI»NING BOSHLANISHI

Biz buyuk ajdodimiz Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-haqoyiq» asaridan parchalar o'qidik. U o'zini shoir emas, balki adab ilmi namoyandasi deb bilgani uchun ismiga «Adib» so'zi qo'shilgan ekan. Yugnak bobomizning tug'ilgan joyi bo'lib, bu nomdagi qishloqlar qadimgi Samarqand atrofi, Farg'ona vodiysi va Sirdaryo bo'ylarida mavjud bo'lgan. Onadan ko'zi ojiz tug'ilgan bobomizning qalb ko'zleri ochiq bo'lgan. «Haqiqatlar tuhfasini» asarining muallifi Adib Ahmad taxminan 747-750-yillarda tug'ilgan ekan. Amriqo olimi Frans Rozental adib yashagan davrni «ilm tantanasi»ning boshlanishi deb atagan qalbimni g'ururga to'ldirdi.

Shahzod SHUHRAVOT,
Zumrad ABDUNABIYEVA,
9-«A» sinf o'quvchilari

SHARQ VA G'ARBDA MASHHUR «ALFRAGANUS»

«Buyuk siymolar, allomalar» kitobidan Ahmad Farg'oniy haqida o'qib, hayratga tushdim. Bundan 1213 yil avval tug'ilgan bobomiz Ahmad Farg'oniy 861-yilda Qohira yaqinidagi Ravzo orolida nilometrni, ya'ni Nil daryosi suvi sathini belgilovchi uskunani yasagan ekan. Uning sakkizta asari ma'lum bo'lib, hammasi astronomiyaga doir. Asosiy astronomik kitobi XII-XIII asrlarda Ovro'po tillariga tarjima qilingan, ismi esa lotinchada «Alfraganus» shaklida yozilib, shu holda fanga abadiy kirib qolgan. XV asrda Avstriya va Italiya Universitetlarida astronomiyadan ma'ruzalar Ahmad Farg'oniy kitoblaridan o'qilgan. Bu bebaho asarlarning qo'lyozmalari Berlin, London, Parij, Tehron, Gota, Qohira, Hindiston va boshqa dunyo kutubxonalarida saqlanadi. Bu ma'lumotlar bilan tanishib, shunday zukko ajdodlarga munosib bo'lish lozimligini angladim.

Shahzoda ABBOSOVA,
7-«E» sinf o'quvchisi

MEHRIMNI OSHIRDI

Men tarix kitobidan Najmiddin Kubro haqida o'qidim. Xorazmlik buyuk olim va vatanparvar bobomizning ismi Ahmad ibn Umar bo'lib, vatandoshlari unga «Kubro», «Tommatal Kubro», «Abduljannob», «Valiytarosh» kabi unvonlarni munosib ko'rishgan. «Ulamolarning yetugi, ulug'vori», «valiylarni tarbiyalovchi» deya ulug'langan bobomiz «Najmiddin» –dinning yulduzi degan martabaga erishgach, Najmiddin Kubro nomi bilan mashhur bo'lib ketgan. U 1145-yilda Xivada tug'ilgan, Misr va Eronda tahsil olgan. Ta'til kunlarida «Tasavvuf allomalari» kitobidan Kubro haqida o'qib, juda ta'sirlandim. Unda yozilishicha, bosqinchilar shaharga kirganda, Najmiddin Kubro oltin hamrohini to'plab, yurt himoyasiga da'vat etadi. Ammo ular quyundek dushman vahmidan tumtaraqay qochadilar. Kubro esa qo'yniga tosh to'ldirib, qo'lga xanjar olib jangga kiradi. Dushmanning yomg'irday o'qlari ostida ularga tosh otib, vatani ni himoya qiladi. Noghahon daydi bir o'q uning ko'ksiga tegadi. U g'anim bayrog'ini qo'lida mahkam changallab, jon beradi. O'nta mo'g'ul uning qo'lidan bayroqni tortib ololmay, qo'llarini kesib bayroqni olishadi. Bu ibratli voqea 1221-yilda yuz bergan ekan. Qalbimni larzaga keltirgan bu fidoyilik, ajdodlarimizga bo'lgan mehrimni yanada oshirdi.

Saidakmal ZIKIROV,
9-«B» sinf o'quvchisi

BILASIZMI?

So'nggi asrda quyosh yorug'ligi bir foizga oshgan.



Oy diametri 3476 kilometr ga teng.

Pluton sayyorasi quyosh atrofini 247,7 yilda aylanib chiqadi.



Eng yaqin yulduzga cha bo'lgan masofa 40200 milliard kilometr ga teng.

Somon yo'lidagi eng keksa yulduzlar yoshi taxminan 15 milliard yilga teng.

Dunyodagi eng keksa daraxt Kaliforniyaning milliy bog'ida o'sib turibdi. Ushbu sosna daraxtini Mafusail deb atashadi. Hozir daraxt roppa-rosa 4899 yoshda.



ISHGA TAKLIF QILAMIZ

Toshkent shahar, Hamza tumani
Xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi
231-maktabda quyida nomlari qayd etilgan
mutacassisliklar bo'yicha oliy ma'lumotli,
Toshkent shahrida doimiy ro'yatda turuvchi
pedagoglarga ehtiyoj mavjudligini ma'lum qiladi.

Rus bo'limiga:

Matematika o'qituvchisi – 15 soat
Biologiya o'qituvchisi – 5 soat
Kimyo o'qituvchisi – 4 soat
Fizika o'qituvchisi – 4 soat
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi – 1 soat
Iqtisod o'qituvchisi – 1 soat

O'zbek bo'limiga:

Iqtisod o'qituvchisi – 4 soat
Geografiya o'qituvchisi – 16 soat
Fizika o'qituvchisi – 14 soat

Bundan tashqari:

Psixolog – 0,5 stavka
Kutubxonachi – 1 stavka

Qo'shimcha ma'lumot uchun 293-44-42
raqamiga murojaat qilishlarini
so'raymiz.



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Olovuddin
ORIPOV
Navbatchilar:
Feruza SOYIBJON qizi,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:

Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilibimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 32426
Buyurtma N: J 452